

INNOVATSIYALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH XIZMATLARI: ISPANIYA, POLSHA VA BOLGARIYA TAJRIBALARI

B.F.Azimov

Osiyo xalqaro universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada innovatsion faoliyatni kuchaytirish maqsadida innovatsiya xizmatlarining o‘rni va ahamiyati Ispaniya, Polsha va va Bolgariya davlatlari tajribasi asosida yoritilgan. Shuningdek, maqolada innovatsion xizmatlarning muvaffaqiyati mamlakat rivojlanishiga ko‘p jihatdan bog‘liqligi alohida ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayonlar, innovatsion loyiha, “nou-xau”, aqliy mulk tushunchasi, ilm-tijorat inkubatori, ilmiy tadqiqot markazi, interfeys.

Mamlakatimizda samarali bozor mexanizmining amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish, raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlash, yangi tovarlar, materiallar va texnologiyalarni yaratish, ularni ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, tarqatishni ta’minlaydigan keng ko‘lamdagi innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash eng muhim va ustivor yo‘nalishlar sirasiga kiradi. Yangi sharoitlarda innovatsion faollikni rag‘batlantirish bozor subyektlari faoliyati samaradorligining oshishiga, buning evaziga mamlakatning iqtisodiy yuksalishiga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Oxirgi yillarda yuz berayotgan o‘zgarishlar shuni ko‘rsatib turibdiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va hatti-harakatlarning ko‘lami shunchalik keng va sur‘ati shunchalik tezki, bu o‘zgarishlarni biror mezon yoki o‘lchamlar bilan ifodalash nihoyatda mushkul vazifa.

Respublikamizda keyingi yillarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish, fan-ta’lim va ishlab chiqarish orasidagi yaqinlikni ta’minlash borasida bir qator ishlar qilindi. Bu borada O‘zbekistonda innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash strategiyasi ishlab chiqilib, hayotga tadbiiq etilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasidagi innovatsion faoliyat haqida”, “Texnologiyalarning transferi (topshirilishi) haqida”, “Tijorat siri haqida”, “Aqliy mulk haqida”gi Qonunlarning qabul qilinishi, O‘zbekiston Prezidentining "Fan va texnologiyalar rivojlanishini boshqarish va muvofiqlashtirish to‘g‘risida", "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik-texnologik qayta jihozlashni rag‘batlantirishning qo‘shimcha choralari haqida”, "Innovatsion loyihalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishni rag‘batlantirish qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining “Ikki tomonlama (harbiy va fuqarolik) qo‘llanishdagi texnologiyalarni uzatish tartibi haqida”, “Eksportga

mo'ljallangan ishlab chiqishlarni xorijiy patentlantirishga valyuta mablag'larini ajratish tartibi haqida" va boshqa bir qator Qarorlarning qabul qilinishi, sohaga dahldor masalalarni muvofiqlashtirish uchun yangi Innovatsion rivojlanish vazirligining tashkil etilishi, 2018 yilga "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nom berilishi fikrimiz dalilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 va 2018 yillardagi Oliy Majlisga Murojaatnomalarida kelgusida ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish, har bir ishlab chiqarish sohasida tarmoq ilmiy-tadqiqot muassasalari, konstruktorlik byurolari, tajriba-ishlab chiqarish va innovatsion markazlar bo'lishi maqsadga muvofiqligi, mamlakatimizga investitsiyalarni faqatgina iqtisodiyot tarmoqlariga emas, balki ilmiy ishlanmalar "nou-xau"lar sohasiga ham keng jalb qilishimiz kerakligi ustivor vazifalar ekanligi takror va takror ta'kidlab o'tgan edi. Prezidentning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmonida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishkabi masalalarga alohida e'tibor berilgan.

Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash sohasida erishilgan yutuqlar bilan birgalikda hal etilishi kerak bo'lgan muammolar, yechimini kutib yotgan masalalar, foydalanilmagan imkoniyatlar ham talaygina. Bizning fikrimizcha, iqtisodiyoti innovatsion yo'naltirilgan mamlakatlarning innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash sohasidagi ilg'or tajribalari O'zbekiston iqtisodiyoti uchun foydali va ahamiyatli bo'lishi mumkin.

Dastlab Ispaniyada innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash sohasidagi tajribalarni keltirib o'tamiz. EU STARTUP ACCELERATORi 2014 yilning 23 yanvaridan boshlab ishlab kelmoqda. Bu loyihaga muvofiq 35 yoshgacha bo'lgan yosh ispanlar AKT, turizm, qayta tiklanuvchi energiya, suv, sog'liqni saqlash va atrof-muhit muhofazasi sohalarida yuqori texnologiyali o'z start-up larini Horizon 2020 dasturi doirasidagi bir million yevrogacha bo'lgan moliyaviy ta'minot bilan ish boshlashga tayyor holga keltirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, ular mikrokreditlash yoki qayta moliyalashtirishning boshqa shakllariga, masalan Yevropa Biznes Angellari Assotsiatsiyasi (EBAN) kabi xususiy investorlarning imtiyozli moliyalashtirishga yaqin keladilar. EU Startup Accelerator

Yevropa Ittifoqiga, Bryusselga tayangan birinchi Ispaniya akseleratoridir. Akseleratorning asosiy maqsadi yuqori texnologiyali start-up larni Yevropa Ittifoqi tomonidan beriladigan grantlar darajasida muvaffaqiyatli rasmiylashtirishga, o'zlarining start-up larini amalga oshirish va tezlashtirishga o'rgatishdir.

Shuningdek, PIDI Network deb nomlanuvchi tizim tajribalari ham muhim ahamiyatli hisoblanadi. PIDI bu „CDTI - Sanoat va Texnologik Rivojlantirish Markazi (ya'ni Centro para el Desarrollo Tecnológico e Industrial)“ vositasi va Ispaniya Iqtisodiyot va Raqobat vazirligiga qarashli davlat organi hisoblanib bosh maqsadi: kompaniyalar va tadbirkorlarga ilmiy-tadqiqot, tajriba konstruktorlik va innovatsiyalar uchun har qanday darajadagi - mahalliy, hududiy, milliy va Yevropa darajasidagi davlat boshqaruvi organlaridan keladigan ijtimoiy mablag'larni olishlariga axborot va maslahat xizmatlarini ko'rsatish bo'lib hisoblanadi. Ushbu loyihani bir vaqtning o'zida xususiy sektordan 10 ta yirik va o'rta kompaniyalar, ta'lim sohasidan Alikante Universiteti, ilmiy tadqiqot sohasidan 51 ta muassasa, innovatsion infrastrukturadan 79 ta muassasa va 7 ta hukumat vakillari qo'llab-quvvatlashadi.

CIDE Network / STA 2.0 deb nomlanuvchi tizim ham Ispaniya va Portugaliyaning Kanar orollari, Madeira, Azor orollarida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning misolidir. CIDE Network Kanaria orollari kichik va o'rta biznesni tadbirkorlarning Ilmiy-Tadqiqot va Tajriba-Konstruktorlik Ishlari (ITvaTKI) hamda innovatsion faoliyatini oshirish orqali, ayniqsa yaratilgan bilimlar va texnologiyalardan mintaqada, shuningdek qo'shni Portugaliyaning tegishli mintaqalarida foydalanish orqali yaxshilashga ko'maklashish maqsadini ko'zlovchi loyihadir. Ushbu maqsadga erishish uchun hamkor hududlarda (Madeira, Azor orollari, Kanaria orollari) kichik va o'rta korxonalari uchun ilg'or texnologiya xizmatlariga talab va bozorlarni aniqlash, korxonalarining, ayniqsa kichik va o'rta korxonalarining raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash uchun yangi maxsus texnologik xizmatlar to'plamini loyihalashtirish, mutaxassislarni Interfeyslar vositasida ilg'or texnologik xizmatlar bilan ta'minlashning yangi imkoniyatlariga erishishga o'rgatish va ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishga yordamlashish, hamkor hududlardagi kichik va o'rta korxonalari uchun xizmatlar ta'minotining ilg'or tajribasini amalga oshirish va natijalarni baholash, muvofiqlashtirish va loyiha natijalarini tarqatish, shu jumladan, innovatsion siyosatning yangi harakatlarini tayyorlashni yengillashtirish uchun hukumatga hisobotlar tayyorlash kabi oraliq vazifalar ham belgilab olingan. Loyihani amalga oshirishga yetakchi koordinatorlar sifatida nodavlat sektoridan Las Palmas Universiteti jamg'armasi (University Foundation of LasPalmas – FULP), Kanaria orollari Texnologiya instituti hamda mahalliy hukumat tomonidan ACIISI (Agencia Canaria de Investigación, Innovación y Sociedad de la Información) - Kanaria ilmiy-tadqiqot, innovatsiya va axborot uyushmasi agentligi faol ishtirok etadi.

Polshaning IXTIRO II (Invention II) deb nomlanuvchi kichik va o'rta biznes uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash loyihasi Świętokrzyskie mintaqasida amal qiladi. Świętokrzyskie mintaqasida joylashgan KTP (Kielce Texnologik Parki) kichik va o'rta tadbirkorlar uchun ularning ehtiyojlariga javob sifatida o'z maslahatlarini taqdim etadi, chunki yuqori malakali kadrlar uchun mablag'lar yetishmasligi muammosi mavjud. «Yuqori malakali kadrlarni korxonalarida vaqtincha ish bilan ta'minlash» Vazifasining yordami bilan mikro, kichik yoki o'rta korxonalar bilan Świętokrzyskie mintaqasi kompaniyalari uchun innovatsion yechimlarni rivojlantiradigan Yuqori malakali kadrlar bilan hamkorlik qiladilar. Polshada Innovatsion doiralar deb nomlanuvchi mintaqaning o'sish salohiyatiga ega bo'lgan hududlarida innovatsiyalarni qo'llab – quvvatlashning integratsiyalashgan vositalarini takomillashtirish loyihasi ham diqqatga sazovor. Ushbu loyihaning bosh tashabbuskori Polshaning Kelse shahridagi Jan Kochanowski Universiteti hisoblanadi. Loyiha doirasida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik markazlari, tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar bilan maslahatlar, hamda xalqaro faoliyatlarni amalda oshirishning hamkorlik tashabbuslarini ko'rib chiqish va Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan loyihalarni qo'llab-quvvatlashlar amalga oshiriladi. Loyihaning umumiy maqsadi: Swietokrzyskie mintaqasida barqaror hamkorlik shakllarini rivojlantirish, mintaqaning intellektual ixtisoslashuvi doirasida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik sektori va korxonalar orasida yangi bilimlarni amaliyotga qo'llash va texnologiyalarni transfer qilishning integratsion vositalari yaratishdir.

Polshaning Svetokshivski (Swietokrzyskie) mintaqasida amalga oshirilayotgan “Biznes uchun ilm-tijorat inkubatori va tadqiqot universiteti” deb nomlanuvchi tizim ham e'tiborga molik yana bir tajriba hisoblanadi. Ushbu tizimni shakllantirishga mas'ullar Kelse shahridagi Jan Kochanowski Universiteti va Kielce Texnologik Parki hisoblansa-da, undan mintaqadagi ilmiy muassasalar xodimlari, jumladan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik markazlari, oliy ta'lim muassasalari tashkiliy bo'limlari, ta'limga qaratilgan tashkilotlar xodimlari, yakka tadbirkorlar, kichik va o'rta tadbirkorlik firmalari ko'proq manfaat ko'radilar. Loyiha xodimlarning ilmiy-tadqiqotini tijoratlashtirish, texnologiyalar transferi, shuningdek intellektual va sanoat mulkining ahamiyatiga bo'lgan xabardorligini oshirish, intellektual va sanoat mulkini himoyalash, Ilmiy-Tadqiqot va Tajriba-Konstruktorlik markazlari xodimlarining ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishga bo'lgan salohiyatini mustahkamlash, Ilmiy-Tadqiqot va Tajriba-Konstruktorlik markazlari xodimlari o'rtasida tadbirkorlik kayfiyatini yaratish, biznes va ilm-fan yo'lidagi hamkorlik to'siqlarni bartaraf etish, taklif qilingan universitetlar sifatini va ularning umumiy sektor ehtiyojlariga moslashishini rivojlantirish kabi vazifalarni bajarishga moslashgan.

Bolgariyada ham innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash sohasida ayrim tajribalar o'rinli hisoblanadi. Masalan, "Mashina muhandisligi Ilmiy-texnik Ittifoqi - URAK ilmiy tadqiqot markazi" deb nomlanuvchi tizim. Loyiha Bolgariyadagi metall ishlov berish, muhandislik va mashinasozlik qurilishi, kimyoviy sanoat, elektr uskunalar ishlab chiqarish, tikuvchilik va oziq-ovqat sanoati kabi sohalardagi kichik va o'rta korxonalar uchun muhandislik va texnik xizmatlar zarurligini tadqiq qilish va ularning turlarini ixtisoslashtirishni maqsad qilgan. Ushbu loyihaga butun Bolgariyaning Ruse, Razgrad, Silistra, Shumen, Dobrich, Montana, Veliko Tarnovo, Gabrovo, Lovech, Plovdiv, Kardzhali kabi viloyatlaridan 105 ta kichik va o'rta tadbirkorlar, ilm-fan sohasi vakillaridan "Angel Kanchev" Ruse universiteti, "Angel Kanchev" Ruse Universiteti Ilmiy Tadqiqot Markazi, Mashina Muhandisligi Ilmiy Texnika Ittifoqi kabi muassasalar jalb etilgan.

Xulosa shuni aytib o'tish joizki, O'zbekistonda yangiliklar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash tajribalari garchi milliy xususiyat kasb etsa-da, bu sohada ilg'or bo'lgan biz yuqorida keltirib o'tgan mamlakatlardagi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash sohasidagi yutuqlarni o'zlashtirish, ularni ichki shart-sharoitlarga moslashtirish bizni ko'zlangan manzillarga yanada tezroq va nuqsonlarsiz yetib borishimizga ko'maklashadi, degan fikrdamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TEXNOLOGIK JARAYONNING TANNARXINI HISOBLASH. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(3), 17-23.
2. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH, XARAJATLARNI TAHLIL QILISH YONDASHUVLARI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(5), 47-53.
3. Azimov, B. F. (2024). MOLIYAVIY SEKTORDA STATISTIK KUZATISH VA UNING USULLARI. XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI, 1(1), 28-31.
4. Грибанич, В. М. (2012). Организационные формы разработки и освоения инноваций. Известия Московского государственного технического университета МАМИ, 3(2), 22-27.
5. Azimov, B., Toshev, F., & Raximova, D. ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH MODELLARI. TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA, 4.

6. Azimov, B. F., Shadiyev, A. X., & Quدراتova, G. M. (2025). YENGIL SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYALAR. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(4), 15-22.
7. Amanillo, R., & Azimov, B. F. (2025). ANALYSIS OF THE LABOR MARKET AND ITS IMPACT ON ECONOMIC DEVELOPMENT. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 12(01), 22-27.
8. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2025). TANNARXNI HISOBGA OLISH VA UNI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(5), 40-46.
9. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2025). KORXONALAR MAHSULOTLARI TANNARXINI ANIQLASHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(4), 54-61.
10. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2025). XARAJAT TUSHUNCHASI VA MAHSULOT TANNARXINI SHAKLLANTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(4), 79-85.
11. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2025). STANDARTLARGA MUVOFIQ XARAJATLARNI HISOBLASH USULI. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(4), 62-68.
12. Azimov, B. F., Shadiyev, A. X., & Quدراتova, G. M. (2025). TANNARX VA UNING IQTISODIY TAHLILDAGI ROLI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(4), 86-93.
13. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2025). BUYURTMA BO'YICHA XARAJATLARNI HISOBLASH USULI. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(3), 24-30.
14. Азимов, Б. Ф. (2024). ОСНОВНЫЕ КЛАССИФИКАЦИИ ИННОВАЦИОННОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ. Gospodarka i Innowacje., 51, 250-257.
15. Азимов, Б. Ф., & Гафарова, Д. Т. (2013). ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА РЕСУРСНЫХ НАЛОГОВ. In ЭКОНОМИКА I УПРАВЛЕНИЯ: ПРОБЛЕМЫ НАУКИ ТА ПРАКТИКИ (pp. 278-279).
16. Fattohevich, A. B., & Davronovna, R. D. (2024). KRAUDFANDING-MINTAQA OLIY TALIM MUASSASALARI ILMIY-INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONALISHI SIFATIDA. XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI, 1(1), 354-360.
17. Азимов, Б. Ф. (2024). Инновационные Стратегии Промышленных Предприятий: Факторы Формирования. Miasto Przyszłości, 54, 867-877.

18. Азимов, Б. Ф. (2022). Формирование и совершенствование стратегии поддержки инновационной деятельности в регионах Республики Узбекистан. Молодой ученый.–2022, 12(407), 63-65.
19. Азимов, Б. Ф., & Рахимова, Д. Д. (2022). Экономическая безопасность и ее социально-экономическое значение. Редакционная коллегия, 61.
20. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATSION STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(3), 193-198.
21. Азимов, Б. Ф., Бобоев, А. Ч., & Абдуллаев, Ж. Ж. (2022). Определение экспортных драйверов региона путем анализа внешнеторгового оборота бухарской области. ученый ххi века, (7 (88)), 20-24.
22. Azimov, B. F. (2023). Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati. Science and Education, 4(1), 888-896.
23. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). TIKUVCHILIK SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION STRATEGIYALARINI QOLLASH. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(2), 325-330.
24. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISHNING DOLZARBLIGI. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(3), 183-187.
25. Haydarov, N. H., Azimov, B. F., & Halimov, F. E. (2020). Increasing The Efficiency Of Using Sports Facilities Of Educational Institutions Of Sports. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences.
26. Азимов, Б. Ф. (2019). Ўзбек миллий урф-одатлари инвестицион ва инновацион трансформациялашга мухтожми?. Экономика и финансы (Узбекистан), (8), 33-39.
27. Азимов, Б. Ф., Рахимова, Д. Д., & Солиев, Д. Н. (2022). Научные основы инновационного подхода к развитию промышленности и сокращению бедности в узбекистане. Universum: экономика и юриспруденция, (5 (92)), 14-17.
28. TEMPUS, I. (2016). Towards the ModernisATion of Higher Education InstitutionS in Uzbekistan (MATChES). TEMPUS, 4, 2007-2013.
29. Azimov, B. F., & Gulomov, O. H. (2017). Organizational structures of innovation support services: inter-organizational cooperation associations. Инновационное развитие, (6), 35-37.
30. Akhmedov, Y., Asadov, S., & Azimov, B. (2022, December). Two-sided estimation of linear approximation error second-order hypersurfaces. In Journal of Physics: Conference Series (Vol. 2388, No. 1, p. 012124). IOP Publishing.
31. Azimov, B. F., & Rakhimova, D. D. (2022). The role of research and innovations in the modernization of the regional economy. Conferencea, 43-47.
32. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. Science and Education, 4(7), 476-481.

33. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 259-265.

34. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2025). IQTISODIYOTNI RAQAMLI KO 'RSATISHDA SANOATNING O 'RNI. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(4), 42-50.

35. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY OF ANALYSIS OF COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN BUKHARA REGION. International journal of artificial intelligence, 4(10), 341-345.

36. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(2), 321-325.

37. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). MONOPOLIYA VA ANTIMONOPOL SIYOSAT. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(2), 464-468.

38. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING ILGOR XORIJIY TAJRIBASI. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(2), 176-181.

39. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA XMHSNI TADBIQ ETISH XUSUSIYATLARI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 253-258.

40. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). STAGES OF BUSINESS VALUATION. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(2), 167-175.

41. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). KORXONADA ISH HAQI TO'LASH TIZIMLARI VA SHAKLLARI. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(2), 279-285.

42. Qudratova, G. (2024). The Importance Of Innovative Potential In Increasing Competitiveness. Modern Science and Research, 3(1), 933-938.

43. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobatdoshlikni Oshirishda Innovatsion Salohiyatning Ahamiyati.

44. Qudratova, G. (2024). The Importance Of Innovative Activity In Increasing The Competitiveness Of Higher Education Institutions. Modern Science and Research, 3(2), 1257-1261.

45. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(2), 286-294.

46. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Gospodarka i Innowacje., 51, 191-195.

47. EI, I. JAHON SAVDO KO 'RSATKICHLARI ISTIQBOLI VA BUNDA O 'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI UCHUN IMKONIYATLAR.

48. EI, I. (2024). O 'ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY KO 'RSATKICHLAR O 'ZGARISHLARINING 2022 VA 2023 YILLAR VA TARMOQLAR MIQYOSIDA TAHLILI. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(3), 44-52.

49. EI, I. (2024). YALPI ICHKI MAHSULOT TUSHUNCHASI VA UNI HISOBLASHNING ASOSIY SHARTLARI. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(3), 266-274.

50. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. Gospodarka i Innovacje., 51, 258-266.

51. Bahodirovich, X. B. (2025). KORXONALARDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISH. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(4), 72-78.

52. Bahodirovich, X. B. (2025). O'ZBEKISTONDA SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(4), 47-53.

53. Bahodirovich, X. B. (2025). RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(5), 29-34.

54. Bahodirovich, X. B. (2025). SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(4), 37-43.

55. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. Modern Science and Research, 2(12), 559-568.

56. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 45-53.

57. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2025). IQTISODIYOTNI RAQAMLI KO 'RSATISHDA SANOATNING O 'RNI. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(4), 42-50.

58. To'rayevna, S. N. (2024). TEXNOLOGIYA DISKURSI VA YANGI MEDIA SIYOSIY IQTISODIYOTI.

59. To'rayevna, S. N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.

60. To'rayevna, S. N. (2024). KORXONALARDA INNOVATSION LOYIHALARNI BAHOLASH TARTIBI VA TANLASH USULLARI.

61. Sodikova, N. (2024). THE MAIN DIRECTIONS OF PROVIDING THE BUSINESS SECTOR WITH QUALIFIED PERSONNEL. Modern Science and Research, 3(1), 133-139.

62. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). PANDEMIYA SHAROITIDA O 'ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTIDAGI TARKIBIY O 'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI VA ISTIQBOLDAGI IQTISODIY O 'SISH PROGNOZLARI. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(3), 111-123.

63. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT TARMOQLARIDAGI TARKIBIY O 'ZGARISHLAR VA ULARNI BAHOLASH. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(3), 101-110.

64. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O 'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH YO 'NALISHLARI. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(4), 245-254.

65. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O 'ZBEKISTONDA EKSPORT-IMPORT KO 'RSATKICHLARINING TAHLILI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(5), 151-159.

66. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). JAHON SAVDO KO 'RSATKICHLARI ISTIQBOLI VA BUNDA O 'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI UCHUN IMKONIYATLAR. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(4), 236-244.

67. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). АНАЛИЗ БЕЗРАБОТИЦЫ В РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАНАХ АФРИКИ И УЗБЕКИСТАНЕ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(4), 122-128.

68. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВВП СТРАН ЕВРАЗИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОЮЗА (ЕАЭС) И УЗБЕКИСТАНА. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(3), 149-156.

69. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УРОВНЯ ИНФЛЯЦИИ В СТРАНАХ ЕС И УЗБЕКИСТАНЕ. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(4), 206-212.

70. Abidovna, A. S., & Sadilloevna, D. M. (2024). THE IMPACT OF MANAGEMENT PRACTICES ON INNOVATION IN ENTREPRENEURSHIP. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(3), 232-237.

71. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTNING MOLIVAVIY REJASI VA UNING MUVAFFAQIYATGA TA'SIRI. Science, education, innovation: modern tasks and prospects, 2(1), 8-14.

72. Raxmonqulova, N. O. (2025). HODIMLARNI RAG 'BATLANTIRISH VA MOTIVATSIYA ORQALI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 2(1), 29-35.

73. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOT MAQSADLARINI BELGILASH VA ULARGA ERISHISH BO 'YICHA STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARI. Science, education, innovation: modern tasks and prospects, 2(1), 22-28.
74. Hakimovich, T. M. (2025). PRIORITIES FOR DEEPENING STRUCTURAL CHANGE IN THE ECONOMY. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 12(01), 84-90.
75. Hakimovich, T. M. (2025). HUDUDLAR IQTISODIYOTINI JADAL RIVOJLANTIRISH BO'YICHA STRATEGIYALARNING QO'LLANILISHI. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(4), 129-136.
76. Bazarova, M. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI. Modern Science and Research, 4(1), 29-36.
77. Shadiyev, A. X. (2025). A MODERN APPROACH TO THE METHODOLOGY OF TEACHING ECONOMIC DISCIPLINES. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 12(01), 134-139.
78. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 153-159.
79. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KORXONA VA TASHKILOTLARDA PERSONALNI BOSHQARISH TIZIMI VA TAMOYILLARI. Gospodarka i Innovacje., 48, 685-690.
80. Shadiyev, A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI. Modern Science and Research, 3(6).
81. Olimovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel services. Academy, (4 (55)), 40-42.
82. Khudoynazarovich, S. A. (2023). CREATING VALUE IN A TOURIST DESTINATION.
83. Akbarovna, N. N. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR. Gospodarka i Innovacje., 54, 107-112.
84. Akbarovna, N. N. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT METHODS IN AN INNOVATIVE ECONOMY. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 407-412.
85. Akbarovna, N. N. (2024). MILLIY IQTISODIYOTNI TAHLIL QILISHDA QO 'LLANILADIGAN ASOSIY KO 'RSATKICHLAR. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(3), 278-283.
86. Жумаева, З. К. (2019). Современные Тенденции И Направления Развития Инвестиционной Деятельности В Регионах Республики Узбекистан. Современные Проблемы Социально-Экономических Систем В Условиях Глобализации, 148-152.
87. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. Modern Science and Research, 3(6).

88. Bustonovna, J. Z. (2024). JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZIMINI TAKOMILASHTIRISH.

89. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG ‘BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.

90. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O ‘Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.

91. Джураева, М. С. (2025). АВТОНОМНЫЕ И ИНТЕГРИРОВАННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 135-141.

92. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). BARQAROR RIVOJLANISHGA O ‘TISH SHAROITIDA ISHLAB CHIQRARISHNI BOSHQARISH VA TASHKIL ETISH. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 307-312.

93. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO‘LLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 93-99.

94. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALAR TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 284-292.

95. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQADA MEHNAT BOZORI. MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING XUDUDIIY ASOSLARI, AHOLI BANDLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YOLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 307-309.

96. Musaeva J. KORXONALARDA ASOSIY AKTIVLARNI BOSHQARISH //QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2024. – T. 11. – C. 120-124.

97. Karomatovna M. J., Akram o‘g‘li A. A. ZAMONAVIY SHAROITLARDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TAYM MENEJMENTNING O‘RNI //XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 240-245.

98. Низамов А. Б., Мусаева Ж. К., Мадримов М. О. НАПРАВЛЕНИЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИНВЕСТИРОВАНИЯ В ОСНОВНОЙ КАПИТАЛ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ //XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 336-340.